

**“O‘ZBEKTELEKOM” AKSIYADORLIK KOMPANIYASINING
BIOXILMA-XILLIKNI SAQLASH
SIYOSATI**

Toshkent 2026

“O‘ZBEKTELEKOM” AKSIYADORLIK KOMPANIYASINING BIOXILMA-XILLIKNI SAQLASH SIYOSATI

1. Kirish va maqsadlar

“O‘zbektelekom” AK (keyingi o‘rinlarda — Kompaniya) bioxilma-xillik hamda ekotizimlarni saqlashni barqaror rivojlanish va korporativ mas’uliyatning ajralmas tarkibiy qismi sifatida e’tirof etadi. Mazkur siyosat Kompaniya faoliyatining tabiiy ekotizimlarga ta’sirini minimallashtirish, o‘rmonlar va noyob turlarni saqlash, shuningdek xalqaro va milliy ekologik standartlarga muvofiqligini ta’minlashga qaratilgan tamoyillar, majburiyatlar va mexanizmlarni belgilaydi.

Siyosatning maqsadi — Kompaniya infratuzilma obyektlarini rejalashtirish, qurish va ekspluatatsiya qilish jarayonlarida “No Net Loss” hamda “No Deforestation” tamoyillarining izchil amalga oshirilishini ta’minlashdan iborat.

Xususan:

- bioxilma-xillikning yo‘qolishi va o‘rmonlar kesilishining oldini olish;
- tabiiy va iqlimiy xatarlar ta’sirini kamaytirish;
- TNFD va TCFD xalqaro tamoyillarini korporativ boshqaruv tizimiga integratsiya qilish;
- xalqaro standartlarga muvofiq axborotning ochiqligi va oshkoraligini ta’minlash.

2. Qo‘llanish sohasi

Mazkur siyosat Kompaniyaning barcha tarkibiy bo‘linmalari va filiallariga, barcha xizmat ko‘rsatish jarayonlariga va Kompaniya tomonidan amalga oshiriladigan boshqa faoliyat turlariga nisbatan, jumladan quyidagilarga qo‘llaniladi:

- infratuzilma obyektlarini rejalashtirish, nominal nuqtalarni belgilash (tayanch stansiyalari, aloqa liniyalari va boshqalar);
- yer va tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog‘liq har qanday xo‘jalik faoliyati;
- aloqa obyektlari va muhandislik tizimlarini ekspluatatsiya qilish;
- faoliyati tabiiy muhitga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan pudratchilar va yetkazib beruvchilar bilan o‘zaro hamkorlik.

3. Normativ havolalar

Ushbu siyosatni ishlab chiqishda quyidagi normativ-huquqiy, normativ va ichki hujjatlardan foydalanilgan:

O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrda 754-XII-son “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni;

O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 24-fevralda O‘RQ-1036-son “Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta’sirni baholash va strategik ekologik baholash to‘g‘risida”gi Qonuni;

O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 27-dekabrda 353-I-son “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda PF-46-son “Respublikada ko‘kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlarni muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrda PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-iyundagi 484-son “2019–2028-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-noyabrda 699-son “O‘zbekiston Respublikasi telekommunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 11-oktabrdagi 820-son “Tabiatni muhofaza qilishni ta‘minlashning iqtisodiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori;

ISO 14001:2015 — Ekologik menejment tizimi (EMS);

“O‘zbektelekom” AKning 2025–2030-yillarga mo‘ljallangan ESG strategiyasi;

“O‘zbektelekom” AKning Barqaror rivojlanish siyosati;

“O‘zbektelekom” AKning Ekologik va energetik siyosati;

“O‘zbektelekom” AKning Ekologik va ijtimoiy menejment tizimi.

4. Atamalar va ta’riflar, qisqartmalar

4.1 Atamalar va ta’riflar

Bioxilma-xillik — tirik organizmlar xilma-xilligi, turlari, genetik va ekotizimlar darajasidagi xilma-xillik.

No Deforestation — faoliyat va loyihalarni amalga oshirish jarayonida o‘rmonlarning kesilishiga yo‘l qo‘ymaslik tamoyili.

No Net Loss — bioxilma-xillik yo‘qotishlarini kompensatsiya qilish orqali boshlang‘ich darajadan pasayishiga yo‘l qo‘ymaslik tamoyili.

4.2 Qisqartmalar

ESG (Environmental, Social, and Governance) — Kompaniya barqarorligini baholashda qo‘llaniladigan ekologik, ijtimoiy va boshqaruv omillari.

EIA (Environmental Impact Assessment) — loyihalar amalga oshirilishidan oldin atrof-muhitga ta’sirni baholash jarayoni.

GRI 101 (Global Reporting Initiative 101) — Global hisobot tashabbusining asosiy standarti bo‘lib, nomoliyaviy hisobotlarni tayyorlash va oshkor etishning umumiy tamoyillarini belgilaydi.

LEAP (Locate, Evaluate, Assess, Prepare) — TNFDning tabiat bilan bog‘liq ta’sir va xavflarni baholash hamda boshqarish yondashuvi.

SANQvaN (SanPiN) — sanitariya qoidalari va normalari.

TCFD (Task Force on Climate-related Financial Disclosures) — iqlim bilan bog‘liq xavflar bo‘yicha axborotni oshkor etish yuzasidan tavsiyalar.

TNFD (Taskforce on Nature-related Financial Disclosures) — tabiat bilan bog‘liq xavflar bo‘yicha axborotni oshkor etish yuzasidan tavsiyalar.

5. Asosiy tamoyillar va majburiyatlar

Kompaniya quyidagi majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi:

1. bioxilma-xillik va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida xalqaro standartlar hamda amaldagi milliy qonunchilik talablariga rioya etish (TNFD, GRI 101, BMTning Bioxilma-xillik to‘g‘risidagi konvensiyasi, Kompaniyaning ekologik va ijtimoiy boshqaruv tizimlari, ISO 14001, O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni);

2. infratuzilma loyihalarini amalga oshirish jarayonida atrof-muhitga ta'sirni baholash, o'rmonlarning kesilishiga va qimmatli ekotizimlarga zarar yetkazilishiga yo'l qo'ymaslik, shuningdek ta'sirni to'liq bartaraf etish imkoni bo'lmagan hollarda tiklash choralari qo'llash;

3. yo'qolib borayotgan va noyob turlarni saqlash, shuningdek ularning tabiiy yashash muhitining buzilishini oldini olish;

4. "No Net Loss" tamoyilini joriy etish — ta'sirni to'liq oldini olish imkoni bo'lmagan hollarda tabiiy hududlarni tiklash hamda bioxilma-xillikka yetkazilgan ta'sirni qoplash choralari qo'llash;

5. barcha yangi loyihalar bo'yicha qarorlar qabul qilish jarayonida bioxilma-xillikka bo'lgan ta'sirni baholash (EIA) jarayonini integratsiya qilish;

6. davlat organlari, nodavlat tashkilotlari va mahalliy hamjamiyatlar bilan hamkorlik qilish orqali tabiatni muhofaza qilish tashabbuslarini birgalikda amalga oshirish;

7. shaffoflik va hisobdorlik darajasini doimiy ravishda oshirib borish, jumladan bioxilma-xillikka oid ma'lumotlarni yillik ESG hisobotlarda va boshqa nashrlarda oshkor etish.

6. Boshqarishda va bioxilma-xillikka ta'sirni minimallashtirishda yondashuv

Kompaniya bioxilma-xillikka ta'sirni aniqlash, baholash hamda ekologik xavflarni boshqarishga asoslangan quyidagi tizimli yondashuvlarni qo'llaydi:

- ta'sirni boshqarish atrof-muhit va bioxilma-xillikka bo'lgan salbiy ta'sirni kamaytirishga qaratilgan ekologik menejment tizimi (ISO 14001) doirasida amalga oshiriladi;

- barcha yangi va foydalanishdagi infratuzilma loyihalari atrof-muhit va bioxilma-xillikka ta'sirni baholash jarayonidan o'tkaziladi;

- rejalashtirish jarayonida tabiiy qiymatga ega hududlar, muhofaza etiladigan hududlar, o'rmon massivlari, landshaft xususiyatlari hamda hayvonlarning migratsiya yo'llari inobatga olinadi;

- ta'sirni to'liq bartaraf etish imkoni bo'lmagan hollarda kompensatsiya choralari ishlab chiqiladi (ekotizimlarni tiklash, daraxt ekish, tabiiy hududlarni qo'llab-quvvatlash);

- loyiha barcha hayotiy sikli bosqichlarida o'rmon qoplami va bioxilma-xillikni saqlashga qaratilgan "No Net Loss / No Deforestation" tamoyillari joriy etiladi;

- qimmatli tabiiy hududlarga ta'sirni oldini olish maqsadida qurilish yo'nalishlari va maydonlari optimallashtiriladi;

- yo'nalishlar bo'yicha tegishli qoidabuzarliklarni oldini olish va doimiy monitoring olib boriladi.

Kompaniya infratuzilma va investitsiya loyihalarini amalga oshirish doirasida atrof-muhit va bioxilma-xillikka potensial ta'sirni kamaytirishga qaratilgan quyidagi choralarni qo'llaydi:

- telekommunikatsiya tarmoqlarini rejalashtirish jarayonida tabiiy qiymatga ega hududlar, muhofaza etiladigan hududlar o'rmon massivlari, landshaft xususiyatlarini inobatga olish;

- telekommunikatsiya tarmoqlarini qurishda minimal yer maydonidan foydalanishni ta'minlash;

- SANQvaN (SanPiN) talablariga muvofiq radiotexnik obyektlarni loyihalashtirish va ekspluatatsiya qilish ishlari doirasida telekommunikatsiya obyektlarining atrof-muhitga doimiy ta'sirni baholash;

- havo to'liqlari orqali tarqaladigan radiochastota nurlanishi darajasining belgilangan sanitariya me'yorlaridan oshmasligini ta'minlash;
- telekommunikatsiya qurilmalari tomonidan yuzaga keladigan shovqin darajasini belgilangan me'yorlarga muvofiq darajada ushlab turish;
- yangi qurilishga bo'lgan ehtiyojni kamaytirish maqsadida mavjud infratuzilma (kabel kanalizatsiyalari, tayanch stansiyalar, binolar, metall konstruksiyalar, boshqa operatorlar infratuzilmasi)dan foydalanish;
- kabel liniyalarini yotqizish va obyektlarni qurish jarayonida yer ishlari hajmini minimallashtirish, shu jumladan havo aloqa liniyalaridan foydalanish hamda tayanch stansiyalari va uskunalar turlarini optimallashtirish;
- obyektlar joylashtiriladigan hududga jismoniy ta'sirni kamaytirish maqsadida egallangan maydonlarni optimallashtirish;
- aloqa obyektlari va muhandislik tizimlarini ekspluatatsiya qilish jarayonlarini optimallashtirish va obyektlar joylashtiriladigan hududga jismoniy ta'sirni kamaytirish;
- bioxilma-xillik va ekotizimlarga ta'sirni oldini olish yoki kamaytirish bo'yicha tavsiyalar olish, shuningdek yangi obyektlarni ko'rikdan o'tkazish maqsadida Davlat ekologik ekspertizasi markazi bilan hamkorlik qilish.

7. Asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)

Kompaniya telekommunikatsiya faoliyatining bioxilma-xillikka bilvosita va yig'ma ta'siri (infratuzilma, energiya iste'moli, yer resurslaridan foydalanish, chiqindilar va ta'minot zanjiri)ni inobatga oladi hamda tabiiy xavflarni boshqarishni ESG strategiyasiga integratsiya qiladi.

Ta'sirni boshqarish TNFD tavsiyalari hamda LEAP yondashuvini qo'llash asosida amalga oshiriladi. Mazkur yondashuv quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- Locate — aktivlar joylashgan geografik hududlarni aniqlash va ularning ekologik jihatdan sezgir hududlarga yaqinligini belgilash;
- Evaluate — faoliyatning tabiiy resurslar va ekotizimlarga bog'liqligi hamda ularga ko'rsatilayotgan ta'sirni tahlil qilish;
- Assess — bioxilma-xillik bilan bog'liq tabiiy va tartibga soluvchi xavflarni baholash;
- Prepare — xavflarni boshqarish va ta'sirni kamaytirish bo'yicha choralarni ishlab chiqish.

Yondashuvlarni shakllantirishda, shuningdek, bioxilma-xillik sohasidagi Kunming-Montreal global bioxilma-xillik dasturi maqsadlari inobatga olinadi.

Bioxilma-xillik bo'yicha asosiy metrikalar Kompaniyaning 2025–2030-yillarga mo'ljallangan ESG strategiyasiga muvofiq belgilanadi hamda quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- tabiiy qiymatga ega hududlardan tashqarida joylashgan infratuzilma obyektlari ulushi;
- yangi loyihalar bo'yicha bioxilma-xillikka ta'sirni baholash (EIA) jarayonidan o'tgan loyihalar ulushi;
- muhofaza etiladigan hududlar, biologik turlar va yashash muhitlariga salbiy ta'sir bilan bog'liq holatlar hamda jarimalarni monitoring qilish va oldini olish;
- Kompaniya hisobotlarida TNFD tavsiyalariga muvofiq axborotni oshkor etish.

8. Monitoring va hisobdorlik

Bioxilma-xillik bo'yicha ma'lumotlar GRI 101 hamda TNFD standartlariga muvofiq yillik barqaror rivojlanish hisobotida e'lon qiladi.

Mazkur siyosat ijrosi monitoringi natijalari tartibga soluvchi va ekologik xavflarni baholash va atrof-muhitni muhofaza qilish dasturlarini ISO 14001 talablariga javob beradigan atrof-muhitni boshqarish tizimi doirasida takomillashtirish uchun qo'llaniladi.

9. Mas'uliyat

Mazkur siyosat ijrosi quyidagi tarkibiy bo'linmalar tomonidan amalga oshiriladi:

1. Transformatsiya va strategik rivojlantirish departamenti — bioxilma-xillik va ekotizimlar ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlarni tegishli bo'linmalardan yig'adi hamda GRI 101, hamda TNFD standartlariga muvofiq yillik barqaror rivojlanish hisobotida e'lon qiladi;

2. Tasdiqlangan ESG strategiyasiga muvofiq KPI ko'rsatkichlari ijrosini ta'minlash quyidagi departamentlarga yuklatiladi:

- Istiqbolli rivojlantirish va investitsiya loyihalari departamenti;
- Kapital qurilish departamenti;
- Axborot texnologiyalari va telekommunikatsiyalar departamenti;
- Xo'jalik faoliyati departamenti;
- TMS Hub filiali.

Kompaniya bioxilma-xillikni saqlashni biznes barqarorligi, jamiyat farovonligi hamda xalqaro ekologik majburiyatlarning bajarilishi bilan bevosita bog'liq strategik vazifa sifatida ko'radi.

Mazkur siyosat Kompaniyaning barcha tarkibiy bo'linmalari uchun majburiy hisoblanadi va qonunchilik hamda barqaror rivojlanish standartlaridagi o'zgarishlarga muvofiq muntazam ravishda qayta ko'rib chiqiladi.

Mazkur siyosat Kompaniya boshqaruv rasining buyrug'i bilan tasdiqlanadi va tasdiqlangan sanadan boshlab kuchga kiradi. Siyosatga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish Kompaniyada belgilangan tartibda qonunchilik talablari, xalqaro standartlar hamda Kompaniyaning ichki normativ hujjatlaridagi o'zgarishlarni inobatga olgan holda amalga oshiriladi. Mazkur siyosatni bekor qilish Kompaniya boshqaruv rasining buyrug'i bilan amalga oshiriladi.